

# INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANIB MA'RUZA DARSLARINI TASHKIL ETISH.

Abduraxmonov Elbek Usmonovich

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

akademik litseyi oliy toifali matematika fani o'qituvchisi.

**Annotatsiya.** Interfaol usullardan samarali foydalangan holda dars mashg'ulotlarini tashkil etish o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi.

**Kalit so'zlar.** Ma'ruza, kitob bilan ishlash usuli, suhbat usuli

**Annotation.** The organization of classes with the effective use of interactive methods will further increase the interest of students in science.

**Keywords.** Lecture, method of working with a book, method of conversation

Ta`limni yuqori darajada samarali tashkil etish uchun maqsad va vazifalarni aniq belgilash va ta`lim natijasini oldindan qayd etish zarur. O'quv predmetlarini to'liq o'zlashtirishga erishish uchun zaruriy ta`lim vositalari, shart-sharoitlarni tayyorlash hamda oldindan qayd etilgan, aniq kafolatlangan natijaga erishish uchun zaruriy tadbirlar tizimini ishlab chiqish va ta`lim jarayonini unga rioya qilib tashkil etishni talab etadi.

**Dars mashg'ulotlarida ma'ruza usulidan foydalanish.** Maktab va o'quv yurtlarida keng qo'llanadigan ta`lim usullaridan biri ma'ruza usulidir. Axborotlarni monologik usulda bayon etish ma`ruza usuli deyiladi. Uning samarali natijalar berishi quyidagi didaktik shartlarga bog'liq:

- Ma`ruzaning batafsil rejasini tuzish;
- Ma`ruza rejasini o'qib berish va yozib qo'yish;
- Har bir punkt bo'yich axborotlar yoritilgach, qisqa xulosa qilish;
- Har bir kismidan boshqasiga o'tganda mantiqiy bog'liqlikni ta'minlash;

- Axborotlarni muammoli tarzda bayon etish;
- Axborotlarni o'quvchi tomonidan alohida ajratib ko'rsatish;
- Ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulotlar materiallar bilan bog'lanishi va birga olib borilishi.

Hozirgi vaqtda ma'ruzaning faol usuli xilma-xil ko'rinishlari vujudga keldiki, bular (muammoli ma'ruzalar, ma'ruza-konferentsiya, konspekt) ma'ruza, mualliflik ma'ruzalari, ma'ruza munozara, teskari aloqa texnikasi qo'llangan ma'ruzalar, aniq vaziyatlarni tahlil qiluvchi ma'ruzalar va boshqalar.

Ta'lim amaliyotida mazkur usuldan foydalanish asosida uni takomillashtirish omillarini tadqiq qilish lozim. Ma'ruza usulini takomillashtirish usuli:

- a) ma'ruzalar o'quv materialini o'qishdan - materialni tahlil qilishga o'rgatish;
- b) materialni xabar qilishdan o'quvchilarni bilib olish faoliyati usullari, tizimli yo'naltirish usullari bilan qurollantirishga o'tish;
- v) ma'ruza usulida o'quvchilarni oddiy tinglovchi, axborotlarni passiv idrok etuvchidan, faol ishtirok etuvchiga, yaratuvchilik, ijodkorlik elementlarini kiritish orqali amalga oshiriladi.

Ma'ruza usulida o'quvchilarning faol ishtirok etishlari, ijodiy faoliyatlaridan foydalanish uchun:

- o'quvchilarga savol berib, javoblardan foydalanish;
- mavzu bo'yicha erkin fikr almashishga vaqt va imkon berish;
- aniq vaziyatlarni birgalikda tahlil qilish;
- xayotdan olingan misollar, voqealardan foydalanish;
- o'quv materialini jonli, jozibali bayon etish;
- ma'ruzada o'quvchilar to'plagan materillardan foydalanish;
- materialni bayon etishda taqqoslash usulidan foydalanish;
- o'quv materialini jonli, jozibali bayon etish;

- ma`ruzada o'quvchilar to'plagan materiallardan, tayyorlagan chizmalar, manbalardan foydalanish;
- materialning bir qismini o'quvchilarga oldindan mustaqil, ijodiy ish sifatida topshirib, natijalarini ma`ruza vaqtida tinglash va hokazo.

## MA`RUZA USULIDAN FAYDALANISHNING TEXNOLOGIK XARITASI

Faoliyat Bosqichlari	O'qituvchi faoliyati	O'quvchi faoliyati
I. Tayyorlov Bosqichi	- material mazmunini aniqlash; - maqsad va natijani belgilash; bayon etishning batafsil rejasini ishlab chiqish, ko'rsatmali vositalarini tanlaydi:	
II. Mavzuga kirish bosqichi	- mavzu nomini va rejasini ma'lum qiladi; mavzu maqsadi va natijalarini bayon etadi.	Mavzu nomini va rejalarini yozib oladilar
III. O'quv materialini bayon etish.	o'quv materialini; ko'rgazma-namoyish qurollari; o'quvchilarning fikr yuritishini faollashtirish usullaridan foydalanadi	Eshitadi, kuzatadi, yozib oladilar. Tavsiya qilingan muammoni muhokama qiladilar, misol keltiradilar, taqqoslaydilar.
IV. Umumlash-tirish bosqichi.	Berilayotgan materialni umum-lashtiradi, asosiy xulosa, qonuniyat va qoidalarni ta`riflab	Yozadilar, mustaqil xulosa chiqaradilar



	beradi yoki buni o'quvchilarni qoidalarni ta`riflab bajarishga taklif etadi.	beradilar.
--	--	------------

## MASHG'ULOTLARDA KITOB BILAN ISHLASH USULIDAN FOYDALANISH

Mashg'ulotlarda kitob bilan ishslash usullaridan ta`limning barcha bosqichlarida foydalanish hamma o'quv fanlarini o'qitishda keng qo'llaniladigan ta`lim usullaridan biri kitob bilan ishslash usulidir. Zero, kitobsiz ta`limning samaradorligini ta`minlab bo'lmasligini, har bir pedagog yaxshi biladi.

Kitob bilan ishslash usuli o'quvchilardan manbalarni tushunib o'qish, kitob o'qishga qiziqish, dunyoqarashlarini, hayotiy tajribalarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Mashg'ulotlarda o'quv predmetining xususiyatlaridan kelib chiqib darslik, vaqtli matbuot, badiiy adabiyot, disket, matn kabi manbalardan foydalanish tizimi vujudga kelgan. Kitob bilan ishslashda;

- kitob bilan dastlabki tanishuv;
- matnni ko'z yogurtirib chiqish;
- matnni qismlarga ajratib, qayta hikoya qilish rejasini tuzish;
- matnni konspektlashtirish;

-referat, tezislар tayyorlash va chiqishlar qilish va h.k

Pedagogikamizning buyuk allomalari Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Jomiy, Navoiy, A.Avloniy, Hamzalar o'z asarlarida inson ma`naviy kamolotida kitob, kitobni mutola qilishning ahamiyati haqida alohida ta`kidlaganlar. Xilma-xil axborotlar ko'lami, hajmi mislsiz oshib borayotgan bugungi kunda ham o'quvchilarni kitob bilan ishslashga (uni o'qish tushunish, taqqoslash, konspektlashtirishni va h.k) o'rgatish lozim.





## TEXNOLOGIK XARITASI

Faoliyat bosqichlari	O'qituvchi faoliyati	O'quvchi faoliyati
I. Tayyorlov bosqichi	<p>- Mustaqil o'rgannish uchun manbani tanlaydi;</p> <p>o'quv faoliyati maqsadi, vazifasi, natija va uni baholash mezonlarini shakllantirish.</p>	
II. Mavzuga kirish bosqichi	<p>-o'quvchilarni o'rganilayotgan mavzu bilan tanishtirish maqsadida ilgari etilgan material bilan yangisini taqqoslash va bog'lash uchun suhbat;</p> <p>Yangi material savollarini asoslab beradi;</p> <p>- mustaqil bilim olish tartib va vazifalarini belgilaydi (o'qish, tushunish, matndagi asosiy g'oyani belgilash, eslab qolish, taqqoslash)</p>	
III. Kitob	<p>- Natijani baholash mezonlarini e`lon qiladi;</p>	<p>O'qiydilar, asosiy materialni belgilaydilar; vazifaga qarab mantiqiy</p>



bilan ishslash jarayoni.	- kuzatadi, individual yordam beradi.	sxema, reja, konspekt tuzadilar; savol bo'yicha adabiyotlarni tanlaydilar.
IV. Tekshirish, tahlil qilish, baholash bosqichi	o'rganilgan materialni o'zlashtirish sifatini tekshiradi, tahlil qiladi va natijalarni baholaydi.	Matnni qayta ishlab chiqish tayyorlagan referat, sxemalarni namoyish etadi: o'zaro tekshiruv, baholash, o'ziga baho berishni amalga oshiradi.

Kitob bitmas-tuganmas bilim manbai, insonning ma`naviy ahloqiy jihatdan shakllantirishning muhim omili. Shuning uchun o'quvchilarni mashg'ulotlarda kitob o'qishga astoydil o'rgatish lozim.

### MASHG'ULOTLARDA SUHBAT USULIDAN FOYDALANISH

Suhbat ta`limning dialogik, savol - javob usuli. Bu usulning yetakchi funksiyasi - motivatsiya qilish: aniq maqsadni ko'zda tutadigan va mohirona qo'yilgan savollar yordamida o'quvchilarni o'z bilimlarini berilgan mavzu bo'yicha esga olish, bayon etishga, muhokama etishga o'rgatadi.

Suhbat davomida o'quvchilar yangi bilimlarni mustaqil fikrلash, xulosa chiqarish, yakunlash va umumlashtirish yo'li bilan egallab oladilar, tushunadilar. Fikr yuritishni maksimal faollashtiradi, bilim olishga intilishni yanada rivojlantirish imkonini beradi.

Belgilangan maqsad bo'yicha suhbatlar:

a) Kirish yoki tashkil qiluvchi (didaktik vazifasi – o'quvchilarni mashg'ulotga tayyorlash)

b) Yangi bilimlardan xabardor qilish (didaktik vazifasi -o'quvchilar yangi material bilan tanishtiriladi).

v) Sintezlovchi yoki mustahkamlovchi (didaktik vazifasi o'quvchilar tomonidan bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash, eslab qolish va (anglash) Suhbatlar o'quv va davra suhbatlariga bo'linadi. Davra suhbatlarida ishtirokchilarning joilashish tartibi va asosiysi ularning o'z fikrini navbat bilan bildirishidir. Suhbat erkin vaziyatda olib borilib, savollar aniq, lo'nda berilishi juda muhimdir. Ular o'zaro mantiqiy bogliq bo'lishi, o'r ganayotgan materialning tub ma'nosini ochib berishi, bilimni tartibli ravishda egallab olishga imkoniyat yaratilishidadir.

Savollar ma`nosi va shakli jihatdan o'quvchilarni rivojlanish darajasiga mos bo'lishi kerak. Oson savollarda faol bo'lishi, bilishga jiddiy yondashuv, intilishni kuchaytiradi.

a) Har bir savolni barchaga berasiz. O'y lash uchun bir oz vaqt o'tgandan keyingina o'quvchilarni javob berishga taklif qilasiz.

b) Savolga joyidan turib «baqirib» javob bergan o'quvchini rag'batlantirmang.

v) «Bo'sh» o'quvchilardan ko'proq so'rash, boshqalardagi aniq javoblarni to'g'rilash yoki to'l dirish imkonini berish.

g) Juda uzun yoki «qo'shaloq» savollar qo'ymang

d) Savolga javob olaolmasangiz, savolni qayta tuzish, yoki bo'laklarga ajratib yo'naltiruvchi savollar bering.

e) Javoblarni isbotlashga, taqqoslashga, o'z dalili va misollari bilan asoslashga imkon bering.



i) Suhbat usulini qo'llayotganingizda o'z imkoniyatingizni va o'quvchilarizingizning tayyorgarlik darajasini taroziga solib ko'ring.

### *SUHBAT USULINING TEXNOLOGIK XARITASI*

Faoliyat bosqichlari	O'qituvchi faoliyati	O'quvchi faoliyati
I. Tayyorlov bosqichi	Suhbat mavzularini, maqsadni, vazifasini va natijasini aniqlaydi, ko'rgazmali vositalarni tanlaydi asosiy va yordamchi savollarni aniqlaydi: uni tashkil qilish va olib borishni puxta o'ylab chiqadi: Savol berish tartibi, asosiy holatlarni. umumlashtirish xulosa qilish kerakligini aniqlaydi.	
P.Suhbatga kirish bosqichi	Qisqacha ma'lumot tarzida o'quv suhbatining mavzusini, vazifasini e'lon qiladi.	





III. Suhbat bosqichi	Suhbat o'quvchilarning mulohazalarini qo'yilgan vazifalarga mos ravishda ularni to'ldiradi. O'quvchilarning suhbatda faol qatnashishlarga harakat qiladi. To'g'ri javoblarni ma'qullaydi, noto'g'ri va to'liq bo'limgaganlarini sharhlaydi, Noto'g'ri javob bergan o'quvchiga o'z xatosini o'zi topishni taklif etadi. Boshqalarni yordamga, chaqiradi.	davomida alohida umumlashtiradi, javoblarni tahlil qiladilar. Barcha O'z mulohazalarini aytadilar.	Savollarni diqqat bilan tinglaydi. Javoblarni o'ylaydilar. O'rtoqlarining javoblarni tahlil qiladilar.
IV. Xulosa bosqichi	Usullardan birini tanlab, suhbat natijasini umumlashtiradi:  - O'zi yakun yasaydi  -faolligi bilan ajralib turgan o'quvchidan suhbat natijalarini umumlashtirish va ma`lumot berish so'raladi.  Yo'naltiruvchi savollar yordamida suhbat natijalarini umumlashtiradi		
V. Yakun yasash,tahlil qilish,	Yakun yasaydi: O'quvchilar tomonidan amalga oshirilgan faoliyatni tahlil qiladi va baholaydi.	O'z-o'zini baholash amalga oshirilishi mumkin.	



baholash		
----------	--	--

Ta`limning interfaol usullarini maktab amaliyotida qo'llash, o'quvchiga har bir fandan o'r ganiladigan ilmiy tushuncha va qonuniyatlarni shunchaki o'r ganib qolmasdan, balki uni keltirib chiqaruvchi sabablarni ham aniqlashtirishga yordam beradi.

O'quvchida ilmiy dunyoqarashni shakllanuvida, o'zligini tanishtirishda, murakkab vaziyatlarda o'zini erkin tutib mustaqil ravishda to'g'ri yo'l tanlay bilishida noan`anaviy darslar va ta`limning interfaol usullarining ahamiyati katta ekanligiga ishonch hosil qildik.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. YU.K.Babanskiy. Hozirgi zamon umumiyligi ta`lim maktabida o'qitish metodlari. Toshkent. «O'zbekiston». 1990 yil.
2. O.Mo'minov. Zamonaviy geofafiya darsiga qo'yiladigan talablar. Toshkent. «O'zbekiston» -1990 yil.
3. V.F.Shatalov. Hamma va har bir kishini o'qitamiz. Toshkent «O'zbekiston». 1987 yil.
4. L.I.Bajenova. Pedagogik izlanish - Toshkent «O'qituvchi» -1990 yil.
5. Viloyat o'qituvchilarning ilgor pedagogik tajribalari. 1990-2000.